O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
PREZIDENTI HUZURIDAGI
DAVLAT SIYOSATI VA BOSHQARUVI
AKADEMIYASI

JAMIYAT VA BOSHQARUV

Общество и управление / Society and Administration

2026/3(113)

1997-yildan nashr etiladi

ISSN: 2181-7340
E-ISSN: 3093-9208

Toshkent – 2026

AHOLI O‘LIM HOLATINING IQTISODIY STATISTIK TAHLILI



Zarina SIROJ,
Toshkent amaliy fanlar universiteti, “Bank va moliya” kafedrasi dots. v.b. PhD, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti doktoranti

Annotatsiya: mazkur maqolada aholining o‘lim holati iqtisodiy-statistik yondashuv asosida tahlil qilinib, o‘lim jarayonlarining dinamikasi va hududiy tafovutlari yoritiladi. Tadqiqotda 2018–2024-yillar davomida O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha vafot etganlar soni hamda umumiy o‘lim koeffitsiyenti ko‘rsatkichlari statistik jihatdan baholandi. Dinamik va hududiy taqqoslashlar asosida o‘lim holatining ijtimoiy-iqtisodiy omillar, sog‘liqni saqlash infratuzilmasi va ekologik sharoitlar bilan bog‘liqligi aniqlandi. Tahlil natijalari pandemiya yillarida o‘lim darajasining vaqtincha oshganini, keyingi yillarda esa barqarorlashuv tendensiyasi shakllanganini ko‘rsatdi. Maqolada o‘lim holatini baholashda mutlaq va nisbiy ko‘rsatkichlarni kompleks qo‘llash zarurligi asoslanib, sog‘liqni saqlash va demografik siyosatni takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-amaliy xulosalar berilgan.

Kalit so‘zlar: *o‘lim holati, demografik jarayonlar, iqtisodiy statistika, vafot etganlar soni, o‘lim koeffitsiyenti, hududiy tafovutlar, sog‘liqni saqlash, demografik tahlil.*

Экономический статистический анализ смертности населения

Zarina SIROJ,
Ташкентский университет прикладных наук, и.о.доцент факультета «Банковское дело и финансы», PhD, докторант Ташкентского государственного экономического университета

Аннотация: в статье представлен экономико-статистический анализ смертности населения с акцентом на динамику и региональные различия демографических процессов. На основе статистических данных за 2018–2024 годы по Республике Узбекистан проанализированы показатели числа умерших и общего коэффициента смертности. С применением динамического и территориального анализа выявлена связь смертности с социально-экономическими условиями, состоянием системы здравоохранения и экологичес-

кими факторами. Результаты исследования показывают временный рост смертности в период пандемии и последующую стабилизацию показателей. Обоснована необходимость комплексного использования абсолютных и относительных показателей при оценке смертности и разработке эффективной демографической политики.

Ключевые слова: *смертность населения, демографические процессы, экономическая статистика, число умерших, коэффициент смертности, региональные различия, здравоохранение, демографический анализ.*

Economic statistical analysis of population mortality

Zarina SIROJ,
Tashkent University of Applied Sciences, Acting Associate Professor, Faculty of Banking and Finance, PhD, Doctoral Candidate, Tashkent State University of Economics

Annotation: this article presents an economic and statistical analysis of population mortality, focusing on demographic dynamics and regional disparities. Based on official data for 2018–2024 in the Republic of Uzbekistan, the study examines the number of deaths and the crude death rate. Using dynamic and regional comparative methods, the relationship between mortality, socio-economic conditions, healthcare infrastructure, and environmental factors is identified. The results indicate a temporary increase in mortality during the pandemic period followed by a stabilization trend. The study emphasizes the importance of combining absolute and relative indicators in mortality assessment and in improving demographic and public health policies.

Keywords: *mortality, demographic processes, economic statistics, number of deaths, death rate, regional disparities, healthcare system, demographic analysis.*

Aholining o‘lim holati demografik jarayonlarning eng muhim komponenti bo‘lib, u nafaqat jamiyatning ijtimoiy-sog‘liqni saqlash salohiyati haqida ma’lumot beradi, balki iqtisodiy va ijtimoiy siyosatni shakllantirish uchun asosiy statistik ko‘rsatkichlardan biri hisoblanadi. O‘lim darajasi sog‘liqni saqlash xizmatlari sifati, iqtisodiy farovonlik, atrof-muhit sharoitlari, ta’lim darajasi hamda yosh tarkibi kabi omillar bilan uzviy bog‘liqdir. Shuning uchun o‘lim holatini iqtisodiy-statistik usullar yordamida baholash demografik jarayonlarning chuqur tahlili va davlat siyosatini samarali rejalashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Global miqyosda ham o‘lim statistikasi aholi salomatligi va ijtimoiy rivojlanishni baholash uchun markaziy o‘ringa ega. 2025-yilda dunyo bo‘yicha taxminan 63.13 million kishi vafot etishi kutilmoqda, bu o‘limlar soni oldingi yillardagi tendensiyalar asosida o‘rganilmoqda va demografik strukturadagi o‘zgarishlar bilan bog‘liqdir[1].

Demografik statistika bo‘yicha rasmiy ma’lumotlar BMT Aholishunoslik bo‘limi va boshqa xalqaro tashkilotlarning hisoboti

asosida har yili butun dunyo bo‘yicha tug‘ilish, o‘lim va tabiiy o‘sish dinamikasi e’lon qilinadi[2].

Ushbu statistik baholashlar nafaqat ijtimoiy salomatlik holatini aks ettiradi, balki mamlakatlararo taqqoslashlar va demografik siyosatni shakllantirish uchun zaruriy asos yaratadi.

Aholining o‘lim holatini iqtisodiy-statistik tahlil qilish demografiya, sog‘liqni saqlash iqtisodiyoti va ijtimoiy statistika fanlari tutashgan nuqtada shakllangan muhim ilmiy yo‘nalishlardan biridir. Ushbu yo‘nalishdagi tadqiqotlarda o‘lim jarayonlari nafaqat biologik va tibbiy hodisa sifatida, balki iqtisodiy rivojlanish darajasi, turmush sifati, ijtimoiy tenglik va davlat siyosati bilan bog‘liq murakkab jarayon sifatida talqin etiladi.

Taniqli demograflar A. J. Coale va P. Demeny tomonidan ishlab chiqilgan demografik o‘sish va hayot jadvallari (life tables) konsepsiyasi demografik statistikaning metodologik asosini tashkil etadi. Ularning tadqiqotlarida yosh-jins tarkibini hisobga olgan holda o‘lim va tug‘ilish jarayonlarini standartlashtirish usullari taklif etilgan bo‘lib, bu yondashuv bugungi kunda ham demografik tahlilning klassik asosi sifatida qo‘llaniladi[3].

D. S. Preston, P. Heuveline va M. Guillot o‘zlarining “Demography: Measuring and Modeling Population Processes” nomli asarida demografik jarayonlarni statistik modellashtirish masalalariga alohida e’tibor qaratadi. Mualliflar tug‘ilish va o‘lim ko‘rsatkichlarini aniqlashda kohort va period yondashuvlarini qiyosiy tahlil qilib, noto‘liq statistik ma’lumotlar sharoitida baholash usullarini taklif etishgan[4].

W. Lutz, S. K. C. KC va J. Goldstein demografik prognozlash bo‘yicha olib borgan tadqiqotlarida kohort-komponent usulini yanada rivojlantirib, aholi tarkibidagi ta’lim darajasi omilini prognoz modellariga kiritish zarurligini ilmiy jihatdan asoslab bergan. Ushbu yondashuv demografik jarayonlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish bilan uzviy bog‘liq holda tahlil qilish imkonini beradi[5].

J.Bongaarts tug‘ilish darajasini statistik o‘rganishda yaqin determinantlar (proximate determinants) modelini ishlab chiqqan. Mazkur model tug‘ilish jarayoniga bevosita ta’sir etuvchi omillarni (nikoh, kontratsepsiya, tug‘ruq oralig‘i) statistik jihatdan ajratib ko‘rsatish orqali demografik tahlilning aniqligini oshiradi[6].

United Nations Population Division (BMT Aholishunoslik bo‘limi) tomonidan tayyorlangan metodologik qo‘llanmalar va “World Population Prospects” hisobotlari global demografik jarayonlarni qiyosiy statistik tahlil qilishda muhim manba hisoblanadi. Ushbu tadqiqotlarda ma’lumotlarni xalqaro miqyosda taqqoslash uchun yagona standartlar, indikatorlar va prognozlash ssenariylari taklif etilgan[7].

Mahalliy ilmiy adabiyotlarda demografik jarayonlarni statistik o‘rganish, asosan, O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish xususiyatlari bilan bog‘liq holda yoritilgan. Jumladan, Q.Abdurahmonov o‘z tadqiqotlarida aholi takror barpo bo‘lish jarayonlarini mehnat bozori va bandlik ko‘rsatkichlari bilan uzviy bog‘liq holda tahlil qilib, demografik yuklama koeffitsi-

yentining iqtisodiy ahamiyatini statistik usullar asosida ochib bergan[8].

Shuningdek, R. Alimuhamedov demografik statistika bo‘yicha olib borgan ilmiy ishlarida tug‘ilish va o‘lim jarayonlarining hududiy tafovutlarini o‘rganib, ularni baholashda nisbiy ko‘rsatkichlar, indekslar va dinamik qatorlar tahlilining ahamiyatini asoslab bergan. Muallif O‘zbekiston sharoitida demografik jarayonlarni baholashda rasmiy statistik ma’lumotlar bilan tanlanma kuzatuvlarni uyg‘unlashtirish zarurligini ta’kidlaydi[9].

Bundan tashqari, A.S.Sodiqovning ilmiy ishlari aholi soni va tarkibidagi o‘zgarishlarni uzoq muddatli prognozlash masalalariga bag‘ishlangan bo‘lib, unda kohort-komponent usulining milliy statistika amaliyotida qo‘llanish imkoniyatlari ko‘rsatib berilgan. Ushbu yondashuv hududlar kesimida demografik siyosatni rejalashtirishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi[10].

So‘nggi yillarda olib borilgan tadqiqotlar sog‘liqni saqlashga ajratilayotgan byudjet mablag‘larining ko‘payishi va profilaktik choralar kuchaytirilishi o‘lim ko‘rsatkichlarining pasayishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatayotganini tasdiqlaydi.

Umuman olganda, adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, aholining o‘lim holatini iqtisodiy-statistik tahlil qilishda nazariy yondashuvlar va empirik tadqiqotlar bir-birini to‘ldiradi. Xorijiy va mahalliy ilmiy manbalar o‘lim jarayonlarining iqtisodiy va ijtimoiy omillar bilan chambarchas bog‘liqligini tasdiqlab, statistik tahlil va modellashtirish usullaridan foydalanish ushbu jarayonlarni chuqur anglashda muhim ilmiy ahamiyatga ega ekanini ko‘rsatadi.

Mazkur tadqiqotda aholining o‘lim holatini iqtisodiy-statistik jihatdan tahlil qilish kompleks va tizimli yondashuv asosida amalga oshirildi. Tadqiqotning metodologik asosi demografik o‘tish nazariyasi, sog‘liqni saqlash iqtisodiyoti konsepsiyalari hamda S. Preston tomonidan asoslangan daromad va o‘lim darajasi o‘rtasidagi bog‘liqlik haqidagi nazariy yondashuvlarga tayandi. Ushbu yondashuvlar o‘lim jarayonlarini faqat tibbiy hodisa sifatida emas, balki ijtimoiy-iqtisodiy omillar bilan uzviy bog‘liq murakkab jarayon sifatida talqin qilish imkonini beradi.

Tadqiqotning axborot bazasini milliy statistika organlari ma’lumotlari, shuningdek, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Aholishunoslik bo‘limi, Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti, O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi va Jahon banki tomonidan e’lon qilingan rasmiy statistik ma’lumotlar tashkil etadi. Tahlilda umumiy o‘lim koeffitsiyenti, yoshga xos o‘lim ko‘rsatkichlari, chaqaloqlar va onalar o‘limi darajasi hamda tug‘ilishda kutilayotgan umr davomiyligi kabi asosiy demografik indikatorlardan foydalanildi.

Tadqiqot jarayonida umumiy ilmiy va maxsus statistik usullar qo‘llaniladi. Jumladan, demografik jarayonlarni baholashda tug‘ilish, o‘lim, tabiiy o‘sish, nikoh-ajrim va migratsiya bo‘yicha mutlaq va nisbiy ko‘rsatkichlar hisoblanadi. Hududlar va vaqt kesimida taqqoslashni ta’minlash maqsadida, dinamik qatorlar tahlili, strukturaviy tahlil hamda yosh bo‘yicha standartlashtirish usullaridan foydalaniladi.

So‘nggi yillarda jahonda aholining o‘lim holati bo‘yicha kuzatilayotgan jarayonlar demografik rivojlanishning murakkab va ko‘p omilli xarakterga ega ekanini ko‘rsatmoqda. Umuman olganda, uzoq muddatli tendensiya sifatida dunyo miqyosida o‘lim darajasining pasayishi va umr davomiyligining uzayishi kuzatilgan bo‘lsa-da, so‘nggi yillarda ayrim mintaqalarda bu jarayonlarning sekinlashuvi yoki vaqtincha orqaga chekinishi qayd etilmoqda. Bunday holatga: global pandemiyalar, iqlim o‘zgarishi, ekologik muammolar, migratsiya jarayonlarining kuchayishi hamda ijtimoiy tengsizlikning saqlanib qolayotgani kabi omillar sabab bo‘lmoqda.

Jahon miqyosida iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda o‘lim holatining asosiy xususiyati aholining qarishi bilan bog‘liq. Keksalar ulushining ortib borishi yurak-qon tomir kasalliklari, onkologik xastaliklar va surunkali kasalliklar tufayli o‘lim Darajasining nisbatan yuqori bo‘lib qolishiga olib kelmoqda. Shu bilan birga, sog‘liqni saqlash texnologiyalarining rivojlanishi, erta diagnostika va profilaktika choralarining kengayishi umr davomiyligini uzaytirishga xizmat qilmoqda. Natijada, ko‘plab rivojlangan mamlakatlarda o‘lim ko‘rsatkichlari keskin oshmayotgan bo‘lsa-da, demografik yuklama va sog‘liqni saqlash xarajatlarining ortishi dolzarb muammo sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Rivojlanayotgan va o‘tish davridagi mamlakatlarda esa, o‘lim holati ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar bilan yanada kuchli bog‘liq. Kambag‘allik, tibbiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarining cheklanganligi, ekologik xavflar va sanitariya sharoitlarining yetarli darajada rivojlanmaganligi ayrim hududlarda o‘lim darajasining nisbatan yuqori bo‘lib qolishiga sabab bo‘lmoqda. Shu bilan birga, xalqaro tashkilotlar ko‘magida amalga oshirilayotgan sog‘liqni saqlash dasturlari, emlash kampaniyalari va ona-bola salomatligini muhofaza qilish choralarining kengaytirilishi o‘lim ko‘rsatkichlarini pasaytirishda muhim rol o‘ynamoqda. Iqtisodiy-statistik nuqtayi nazardan bu holat o‘lim darajasining nafaqat tibbiy, balki iqtisodiy va institutsional omillar bilan uzviy bog‘liqligini yana bir bor tasdiqlaydi.

O‘zbekiston Respublikasida aholining o‘lim holati jahon tendensiyalari fonida nisbatan barqaror va boshqariladigan jarayon sifatida shakllanmoqda. So‘nggi yillarda mamlakatda sog‘liqni saqlash tizimini isloh qilish, birlamchi tibbiy yordamni rivojlantirish, zamonaviy tibbiy texnologiyalarni joriy etish hamda profilaktik tadbirlarni kuchaytirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar o‘lim ko‘rsatkichlarini pasaytirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Ayniqsa, chaqaloqlar va onalar o‘limi darajasining izchil kamayib borayotgani sog‘liqni saqlash siyosatining samaradorligini aks ettiradi.

Shu bilan birga, O‘zbekistonda o‘lim holati hududlar kesimida bir xil emasligi aniqlanmoqda. Ayrim viloyatlarda ekologik sharoitlar, iqlim omillari, tibbiy infratuzilmaning rivojlanish darajasi va aholi turmush sharoitlari – o‘lim ko‘rsatkichlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Qoraqalpog‘iston Respublikasi va ayrim sanoatlashgan hududlarda ekologik omillar va

sog‘liqni saqlash resurslarining hududiy taqsimoti o‘lim holatini tahlil qilishda alohida e’tibor talab etadi. Bu holat iqtisodiy-statistik tahlilda hududiy tafovutlarni yanada chuqur o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi.

O‘zbekistonda o‘lim darajasi va umr davomiyligi ko‘rsatkichlari: aholi daromadlari, bandlik darajasi, sog‘liqni saqlashga ajratilayotgan byudjet mablag‘lari va ijtimoiy himoya tizimi bilan bevosita bog‘liq. Daromadlar oshib borayotgan va tibbiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlari kengaygan hududlarda o‘lim ko‘rsatkichlari pastroq, umr davomiyligi esa, yuqori ekani kuzatiladi. Bu esa o‘lim holatini iqtisodiy-statistik baholashda makroiqtisodiy va ijtimoiy ko‘rsatkichlarni kompleks tarzda tahlil qilish zarurligini asoslaydi.

1-jadval.O‘lim koeffitsiyenti, promille (jami)[11]

Hududlar	Yillar						
	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024
O‘zbekiston Respublikasi	4,7	4,6	5,1	5	4,8	4,7	4,69212
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	4,6	4,5	4,8	4,5	4,9	5,1	5,051095
Andijon viloyati	5,1	4,7	5	5,1	4,7	4,7	5,197376
Buxoro viloyati	4,2	4,4	5,2	4,7	4,5	4,3	4,653162
Jizzax viloyati	4,2	4	4,3	4,2	4,6	4,6	4,065734
Qashqadaryo viloyati	4,1	3,9	4,2	4,4	4,9	4,7	4,309474
Navoiy viloyati	4,3	4,4	5	4,7	4	4,3	4,498673
Namangan viloyati	4,5	4,5	4,8	4,7	4,5	4,6	4,608406
Samarqand viloyati	4,3	4,3	4,7	4,7	4,7	4,7	4,433121
Surxondaryo viloyati	4,2	4,1	4,5	4,7	5	4,8	4,33517
Sirdaryo viloyati	4,6	4,6	4,6	4,8	4,8	5,1	4,830693
Toshkent viloyati	5,7	5,5	6,2	6,2	5	5,1	5,322146
Farg‘ona viloyati	4,6	4,6	4,9	4,8	4,7	4,6	4,357709
Xorazm viloyati	4,5	4,6	5,1	5	4,9	4,6	4,486618

O‘lim koeffitsiyenti aholining sog‘liq holati, turmush darajasi va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini aks ettiruvchi asosiy demografik ko‘rsatkichlardan biri hisoblanadi. Jadval ma’lumotlari O‘zbekiston Respublikasida 2018–2024-yillar davomida umumiy o‘lim koeffitsiyenti nisbatan barqaror, biroq ayrim yillarda tashqi omillar ta’sirida o‘zgaruvchan bo‘lganini ko‘rsatadi. Xususan, respublika bo‘yicha o‘lim koeffitsiyenti 2018–2019-yillarda 4,6–4,7 promille atrofida shakllangan bo‘lsa, 2020-yilda 5,1 promillega oshgan. Ushbu holat global pandemiya sharoitida o‘lim darajasining vaqtincha ko‘tarilganini aks ettiradi. Keyingi yillarda esa ko‘rsatkichning pasayishi va 2024-yilda 4,69 promille darajasida barqarorlashuvi sog‘liqni saqlash tizimidagi moslashuv va islohotlar samaradorligining ifodasidir.

Hududlar kesimidagi tahlil o‘lim

koeffitsiyentida sezilarli hududiy tafovutlar mavjudligini aniqlab beradi. Toshkent viloyatida 2020–2021-yillarda o‘lim koeffitsiyentining 6,2 promillega yetishi aholi tarkibida keksalar ulushining yuqoriligi, urbanizatsiya darajasi va migratsiya jarayonlari bilan izohlanadi. Qoraqalpog‘iston Respublikasida 2023–2024-yillarda o‘lim koeffitsiyentining nisbatan yuqori bo‘lishi esa, ekologik omillar, iqlim sharoiti hamda sog‘liqni saqlash infratuzilmasining hududiy xususiyatlari bilan bog‘liq.

Andijon, Namangan va Farg‘ona viloyatlarida o‘lim koeffitsiyenti respublika o‘rtacha darajasiga yaqin bo‘lib, bu hududlarda aholining yosh tarkibi nisbatan yosh ekanligi va tug‘ilish darajasining yuqoriligi bilan izohlanadi. Jizzax va Qashqadaryo viloyatlarida o‘lim koeffitsiyentining past bo‘lishi sog‘lom demografik struktura va nisbatan qulay ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar mavjudligidan dalolat beradi. Shu bilan birga, Surxondaryo va Sirdaryo viloyatlarida ayrim yillarda o‘lim koeffitsiyentining oshishi sog‘liqni saqlash xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlari va hududiy ijtimoiy infratuzilma bilan bog‘liq muammolar mavjudligini ko‘rsatadi.

Iqtisodiy-statistik nuqtayi nazardan, jadvaldagi ma’lumotlar o‘lim koeffitsiyentining: aholi daromadlari, sog‘liqni saqlashga ajratilayotgan xarajatlar va bandlik darajasi bilan bilvosita bog‘liq ekanini tasdiqlaydi. Daromadlar barqaror bo‘lgan va tibbiy xizmatlar rivojlangan hududlarda o‘lim koeffitsiyenti past bo‘lib, bu umr davomiyligining yuqoriligi bilan mos keladi. Aksincha, ekologik va ijtimoiy muammolar mavjud hududlarda o‘lim darajasi yuqori ko‘rsatkichga ega.

Umuman olganda, 2018–2024-yillar bo‘yicha o‘lim koeffitsiyentining tahlili O‘zbekistonda o‘lim holati boshqariladigan va barqarorlashuv bosqichida ekanini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, hududiy tafovutlarning saqlanib qolayotgani o‘lim holatini iqtisodiy-statistik tahlil qilishda hududiy, strukturaviy va ijtimoiy omillarni kompleks tarzda hisobga olish zarurligini asoslaydi. Ushbu tahlil natijalari sog‘liqni saqlash va demografik siyosatni ilmiy asosda takomillashtirishda muhim amaliy ahamiyatga ega.

Aholining o‘lim holati demografik jarayonlar tizimida muhim o‘rin tutib, jamiyatning sog‘liq darajasi, turmush sifati va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini aks ettiruvchi asosiy ko‘rsatkichlardan biri hisoblanadi. Vafot etganlar soni esa o‘lim jarayonlarini tavsiflovchi eng muhim mutlaq demografik ko‘rsatkich bo‘lib, u aholi soni, yosh-jins tarkibi hamda sog‘liqni saqlash tizimining samaradorligi bilan bevosita bog‘liqdir. Shu sababli vafot etganlar sonining yillar va hududlar kesimidagi dinamikasini tahlil qilish o‘lim holatini iqtisodiy-statistik jihatdan baholashda alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Quyidagi jadvalda O‘zbekiston Respublikasida 2018–2024-yillar davomi-da vafot etganlar sonining respublika va hududlar kesimidagi o‘zgarishi aks ettirilgan. Ushbu davrning tanlanishi tasodifiy emas, u pandemiyaoldi davri, pandemiya yillari va undan keyingi barqarorlashuv bosqichini qamrab oladi. Bu esa o‘lim holatiga tashqi ijtimoiy-iqtisodiy va epidemiologik omil-

larning ta’sirini aniqlash imkonini beradi. Vafot etganlar sonining hududlar bo‘yicha farqlanishi esa, aholi soni, urbanizatsiya darajasi, ekologik sharoitlar va sog‘liqni saqlash infratuzilmasining hududiy xususiyatlari bilan izohlanadi.

Iqtisodiy-statistik nuqtayi nazardan, vafot etganlar soni ko‘rsatkichini tahlil qilish umumiy o‘lim koeffitsiyenti, umr davomiyligi va sog‘liqni saqlashga yo‘naltirilgan xarajatlar kabi boshqa demografik va iqtisodiy indikatorlar bilan birgalikda olib borilganda yanada mazmunli natijalar beradi. Shu bois mazkur jadval ma’lumotlari aholining o‘lim holatini chuqur tahlil qilish, hududlar kesimida mavjud tafovutlarni aniqlash hamda sog‘liqni saqlash va demografik siyosatni ilmiy asosda takomillashtirish bo‘yicha xulosalar chiqarishda muhim axborot manbai bo‘lib xizmat qiladi.

Vafot etganlar soni aholining sog‘liq holati, yosh tarkibi, ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar hamda sog‘liqni saqlash tizimi samaradorligini aks ettiruvchi muhim mutlaq demografik ko‘rsatkich hisoblanadi. Jadval ma’lumotlari O‘zbekiston Respublikasida 2018–2024-yillar davomida vafot etganlar soni, umuman olganda, barqaror, biroq ayrim yillarda sezilarli tebranishlarga ega bo‘lganini ko‘rsatadi. Xususan, respublika bo‘yicha vafot etganlar soni 2018–2019-yillarda 154–155 ming nafar atrofida shakllangan bo‘lsa, 2020-yilda 175,6 ming nafarga keskin oshgan. Bu holat global pandemiya sharoitida o‘lim holatining vaqtincha ko‘payganini aks ettiradi. Keyingi yillarda ko‘rsatkichning pasayishi va 2024-yilda 174,4 ming nafar atrofida shakllanishi sog‘liqni saqlash tizimining moslashuvi va epidemiologik vaziyatning barqarorlash-ganidan dalolat beradi.

1-jadval.O‘lim koeffitsiyenti, promille (jami)[11]

Hudud	Yillar						
	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024
O‘zbekiston Respublikasi	154913	154570	175625	174541	172068	172757	174413
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	8602	8461	9164	8756	9585	10092	10184
Andijon viloyati	15377	14656	15797	16409	15426	15877	17815
Buxoro viloyati	7978	8335	10055	9129	9069	8758	9588
Jizzax viloyati	5596	5519	6021	5930	6784	6841	6190
Qashqadaryo viloyati	13023	12661	13911	14981	17017	16424	15514
Navoiy viloyati	4161	4378	5038	4848	4156	4588	4881
Namangan viloyati	12200	12534	13536	13542	13433	13831	14281
Samarqand viloyati	16254	16444	18404	18808	19272	19388	18854
Surxondaryo viloyati	10698	10544	11931	12786	13851	13507	12621
Sirdaryo viloyati	3794	3852	3958	4173	4297	4644	4456
Toshkent viloyati	16307	16035	18400	18121	14801	15529	16393
Farg‘ona viloyati	16975	17202	18540	18703	18460	18658	17880
Xorazm viloyati	8203	8467	9671	9463	9446	9004	9036

Hududlar kesimidagi tahlil vafot etganlar sonida sezilarli hududiy tafovutlar mavjudligini ko‘rsatadi. Samarqand, Farg‘ona va Toshkent viloyatlarida vafot etganlar sonining yuqori bo‘lishi, avvalo, ushbu hududlarda aholi sonining ko‘pligi va urbanizatsiya darajasining yuqoriligi bilan izohlanadi. Masalan, Samarqand viloyatida 2022–2023-yillarda vafot etganlar soni 19 ming nafardan oshgan bo‘lib, bu viloyat aholisi soni va yosh tarkibidagi o‘ziga xosliklarni aks ettiradi.

Aksincha, Navoiy va Sirdaryo viloyatlarida vafot etganlar soni nisbatan kam bo‘lib, bu hududlarda aholi sonining kamligi va yosh tarkibining nisbatan yosh ekanligi bilan bog‘liq. Qoraqalpog‘iston Respublikasida vafot etganlar sonining 2022–2024-yillarda izchil oshib borishi ekologik omillar, iqlim sharoiti va sog‘liqni saqlash infratuzilmasining hududiy xususiyatlari bilan izohlanadi. Ushbu holat mutlaq ko‘rsatkichlarni baholashda hududiy aholi soni va demografik tarkibni inobatga olish zarurligini ko‘rsatadi.

Iqtisodiy-statistik nuqtayi nazardan, vafot etganlar sonining o‘zgarishi aholi daromadlari, sog‘liqni saqlashga ajratilayotgan xarajatlar va tibbiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlari bilan bilvosita bog‘liq. Pandemiya davrida vafot etganlar sonining oshishi sog‘liqni saqlash tizimiga tushgan yuklamaning ortganini ko‘rsatgan bo‘lsa, keyingi yillarda ko‘rsatkichlarning nisbatan barqarorlashuvi profilaktika va davolash choralari samara-dorligining oshganidan dalolat beradi.

Shuningdek, vafot etganlar sonini o‘lim koeffitsiyenti va umr davomiyligi ko‘rsatkichlari bilan birgalikda tahlil qilish muhim ilmiy xulosalar chiqarish imkonini beradi. Aholisi ko‘p hududlarda vafot etganlar soni yuqori bo‘lishiga qaramay, o‘lim koeffitsiyenti nisbatan past bo‘lishi mumkin, bu esa sog‘liqni saqlash tizimining nisbatan samarali ishlayotganini ko‘rsatadi. Shu sababli, iqtisodiy-statistik tahlilda mutlaq va nisbiy ko‘rsatkichlarni kompleks tarzda qo‘llash zarur.

2018–2024-yillar bo‘yicha vafot etganlar sonining tahlili O‘zbekistonda o‘lim holati nazorat ostida va barqarorlashuv bosqichida ekanini ko‘rsatadi. Biroq hududlar kesimidagi tafovutlar saqlanib qolayotgani o‘lim jarayonlarini iqtisodiy-statistik jihatdan chuqur o‘rganish, sog‘liqni saqlash infratuzilmasini hududiy ehtiyojlardan kelib chiqib rivojlantirish va demografik siyosatni ilmiy asosda takomillashtirish zarurligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Mazkur tadqiqot doirasida O‘zbekiston Respublikasida 2018–2024-yillar davomi-da vafot etganlar sonining respublika va hududlar kesimidagi dinamikasi iqtisodiy-statistik yondashuv asosida tahlil qilindi. Olingan natijalar mamlakatda o‘lim holati umumiy jihatdan barqaror bo‘lsa-da, ayrim yillarda tashqi omillar, xususan, pandemiya sharoiti ta’sirida vafot etganlar sonining sezilarli oshganini ko‘rsatdi. Keyingi yillarda ko‘rsatkichlarning nisbatan pasayishi va barqarorlashuvi sog‘liqni saqlash tizimining moslashuvchanligi hamda profilaktik va davolash choralari samaradorligining oshganidan dalolat beradi.

Hududlar kesimidagi tahlil vafot etganlar sonida sezilarli tafovutlar mavjud-

ligini aniqladi. Samarqand, Farg‘ona va Toshkent viloyatlarida vafot etganlar sonining yuqori bo‘lishi, asosan, aholi sonining ko‘pligi va urbanizatsiya darajasining yuqoriligi bilan izohlanadi. Qoraqalpog‘iston Respublikasi va ayrim hududlarda esa, ekologik sharoitlar hamda sog‘liqni saqlash infratuzilmasining rivojlanish darajasi o‘lim holatiga ta’sir etuvchi muhim omillar sifatida namoyon bo‘lmoqda. Bu holat o‘lim jarayonlarini baholashda mutlaq ko‘rsatkichlar bilan bir qatorda, nisbiy va standartlashtirilgan ko‘rsatkichlardan foydalanish zarurligini ko‘rsatadi.

Iqtisodiy-statistik tahlil natijalari vafot etganlar sonining aholi daromadlari, sog‘liqni saqlashga yo‘naltirilgan davlat xarajatlari va tibbiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlari bilan bilvosita bog‘liq ekanini tasdiqladi. Daromadlar barqaror va tibbiy infratuzilma rivojlangan hududlarda o‘lim holati nisbatan past bo‘lib, bu umr davomiyligining yuqoriroq bo‘lishi bilan mos keladi. Shu bilan birga, o‘lim holatini faqat tibbiy omillar bilan izohlash yetarli emasligi, balki ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar ham hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligi aniqlanmoqda.

Olingan xulosalardan kelib chiqib, bir qator amaliy takliflarni ilgari surish mumkin. Birinchidan, vafot etganlar soni va o‘lim koeffitsiyentlarini hududlar kesimida doimiy monitoring qilish hamda ularni sog‘liqni saqlash xarajatlari, aholi daromadlari va bandlik ko‘rsatkichlari bilan bog‘liq holda tahlil etish zarur. Ikkinchidan, o‘lim darajasi nisbatan yuqori bo‘lgan hududlarda sog‘liqni saqlash infratuzilmasini mustahkamlash, birlamchi tibbiy yordam va profilaktika tadbirlarini kengaytirish muhim ahamiyatga ega. Uchinchidan, ekologik muammolar mavjud hududlarda aholi salomatligini muhofaza qilishga qaratilgan kompleks dasturlarni kuchaytirish o‘lim holatini kamaytirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, o‘lim holatini iqtisodiy-statistik baholashda standartlashtirilgan ko‘rsatkich-lar va zamonaviy statistik modellashtirish usullaridan foydalanishni kengaytirish ilmiy xulosalarning aniqligini oshiradi. Umuman olganda, mazkur tadqiqot natijalari aholining o‘lim holatini chuqur tahlil qilish va sog‘liqni saqlash hamda demografik siyosatni ilmiy asosda takomillashtirishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega bo‘lib, mamlakatning barqaror demografik rivojlanishiga xizmat qiladi.

Manba va adabiyotlar ro‘yxati:

1. https://statisticstimes.com/demographics/world-death-and-birth-rate.php
2. https://population.un.org/wpp
3. Coale A. J., Demeny P. Regional Model Life Tables and Stable Populations. Academic Press, 1-nashri – 1966, kengayti-rilgan 2-nashri – 1983.
4. Preston, S. H., Heuveline, P., & Guillot, M. (2001). Demography: Measuring and modeling population processes. Oxford, UK: Blackwell Publishers.
5. Lutz, W., KC, S., & Goldstein, J. R. (2014). Demographic dimensions of sustainable development. Population and Development Review, 40(4), 551–576. https://doi.org/10.1111/j.1728-4457.2014.00015.x

6. Bongaarts, J. (1978). A framework for analyzing the proximate determinants of fertility. Population and Development Review, 4(1), 105–132. https://doi.org/10.2307/1972149

7. United Nations, Department of Economic and Social Affairs, Population Division. (2024). World population prospects 2024: Methodology and assumptions. New York, NY: United Nations. https://population.un.org/wpp/

8. Abdurahmonov, Q. X. (2019). Mehnat iqtisodiyoti va aholi bandligi (2-nashr). Toshkent: Iqtisodiyot.

9. Alimuhamedov, R. A. (2017). Demografiya va demografik statistika. Toshkent: Fan va texnologiya.

10. Sodiqov, A. S. (2021). O‘zbekistonda aholi soni va demografik jarayonlarni prognozlash masalalari. Iqtisodiyot va statistika, 3, 45–52.

11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining oylik nashri. O‘zbekiston respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati 2025- yil yanvar.9-b.

12. https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/demography-2